



IQTISODIY NOCHOR KORXONALARNI MOLİYALASHTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI

Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID: 0009-0006-4758-4594
n.javliev@tsue.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqtisodiy nochor korxonalarni moliyalashtirishga ta'sir etuvchi omillar tahlili tadqiq etilgan bo'lib, iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish orqali ishsizlik, qayta moliyashtirish stavkasi va inflyatsiya darajasiga ta'siri ekonometrik tahlillar yordamida yoritilgan.

Kalit so'zlar: to'lovga layoqatsizlik, risk, risklarni boshqarish, makroiqtisodiy barqarorlik, prognozlashtirish, qayta moliyalash stavkasi, inflyatsiya.

АНАЛИЗ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА ФИНАНСИРОВАНИЕ НЕУДАЧНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ

Жавлиев Нуриддин Бектемир угли
Ташкентский государственный
экономический университет

Аннотация. В данной статье исследуется анализ факторов, влияющих на финансирование экономически неплатежеспособных предприятий, а также с помощью эконометрического анализа выделяется влияние финансового оздоровления экономически неплатежеспособных предприятий на безработицу, ставку рефинансирования и уровень инфляции.

Ключевые слова: неплатежеспособность, риск, управление рисками, макроэкономическая стабильность, прогнозирование, ставка рефинансирования, инфляция.

ANALYSIS OF FACTORS AFFECTING THE FINANCING OF FINANCIAL INSOLVENT ENTERPRISES

Javliyev Nuriddin Bektemir ugli
Tashkent State University of Economics

Abstract. This article examines the formation of local budgets as an important stage of the financial strategy. At the same time, an analysis of the formation of income and expenses of the local budget of the Jizzakh region for 2024 was carried out. Proposals were made to improve the efficiency of local government bodies in the formation of the local budget.

Key words: local budget, income, expenses, tax revenues, local government bodies.

Kirish.

Zamonaviy iqtisodiy amaliyotda iqtisodiy nochor korxonalarni sog'lomlashtirish yo'llarini izlash asosiy o'rinni egallaydi. Jahon amaliyotida bankrotliklarni diagnostika qilish usullarining keng tizimi, bankrotlik tahdidi sharoitida korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish usullari shakllangan.

Bankrotlikning ushbu maqsadi tadbirkorlik faoliyatining mohiyati bilan oldindan belgilanadi, bu har doim yakuniy natijalarga erishish uchun bozor sharoitlarining noaniqligi va shuning uchun yo'qotish xavfi bilan bog'liq. Bu xususiyatning mavjudligi takror ishlab chiqarishning barcha bosqichlariga xosdir - xom ashyo, materiallar va butlovchi qismlarni sotib olish va etkazib berishdan tayyor mahsulotni ishlab chiqarish va sotishgacha.

Tadbirkorlikning mohiyatini tushunish va uni tartibga solishning samarali usullarini ishlab chiqish uchun risk va foyda o'rtasidagi bog'liqlik fundamental ahamiyatga ega. Haqiqiy iqtisodiyotda noaniqlik foyda yoki zarar omiliga aylanadi. Bundan tashqari, samaraliroq korxonalarining daromadlari va ortiqcha foydalari kam ta'minlangan korxonalarining yo'qotishlari hisobiga shakllanadi. Bu erda biz foydaning buxgalteriya talqinini emas, balki xarajatlarda "kapital qiymati" bilan bog'liq miqdorlarni hisobga oladigan iqtisodiy talqinni yodda tutishimiz kerak.

Bankrotlik uchun zarur shart-sharoitlar xavf omili va foydaning o'zaro bog'liqligidan shakllanadi. Ushbu shartlarni ayrim shartli (gipotetik) korxonalar balansini tahlil qilish asosida aniqlash mumkin. Uning kapitalining manbalari (balans majburiyatlari) aktsiyadorlarning mablag'lari (kompaniyaning o'z kapitali) va ssudalar, shuningdek korxonaning moliyaviy majburiyatlarining boshqa shakllari (masalan, etkazib beruvchilar oldidagi qarzlar), ular avtomatik ravishda yuzaga keladi.

Adabiyotlar sharhi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar tahlili iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish keng ko'lamli tadqiqotlarni o'rganishga imkon berdi. Olimlar iqtisodiy nochor korxonalar moliyalashtirishning turli xususiyatlarini ko'rib chiqadilar.

Iqtisodiy nochor qatlamlarni kamaytirishda mikromoliyalash hamda mikrofirmalarni ochish va rivojlantirish uchun zarur moliyaviy vositalar bilan ta'minlash hamda kengaytirishda muhim rol o'ynaydi (Rabindra, Kumar, Swain, 2014). Bu iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikka erishida qashshoqlikni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Xorijiy mamlakatlar hususan Mozambikda kichik va o'rta korxonalarining omon qolishi va rivojlanishida moliyaviy iqtisodiy ko'mak asosiy omil sifatida ta'kidlangan (Alen, Sawayaa, Shepherd, Bhero, 2022). Ushbu turdagi korxonalar tegishli moliyaviy yordamga ko'rsatilmaganda ishsizlik darajasi va jinoyatchilikning oshishi kabi katta iqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Shuningdek, Buyuk Britaniyadagi yangi tadbirkor stipendiyalari kabi korporativ dasturlar imkoniyati kam tadbirkorlarning moliyaviy holati bo'shliqqa yuz tutkanda ushbu turdagi moliyaviy kamchiliklarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu dasturlar Buyuk Britaniyaning boshqa kichik bizneslari uchun mavjud bo'lganidan past bo'lgan asosiy moliyalashtirishni ta'minlaydi, bu esa maqsadli moliyaviy yordamga muhtojligini ta'kidlaydi (Julia, Rouse., Dilani, Jayawarna, 2006).

Hindiston kabi mamlakatlarda qashshoqlikni kamaytirishga va adolatli moliyaviy iqtisodiy imkoniyatlarni oshirishda iqtisodiy nochor korxonalar moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish muhim omil sifatida qaralmqoda (Atreyee, Sinha, Chakraborty, 2018).

Shuningdek, imtiyozli biznes kreditlaridan foydalanish imkoniyatini kamayib borish fonidan kam kapitallashuv nochor korxonalar uchun muhim to'siq bo'lib kelmoqda (Timothy, Bates, Timothy, 2005).

Kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlashda faol amalga oshirish fonida yuqoridagi

muammolarni hal qilish uchun moliyaviy institutlarni qo'llab quvvatlash ahamiyatini oshiradi (Mohamed, Ali, Merroun., Mhamed, Hamiche, 2023). Shuningdek, korxonalarni moliyaviy barqarorlikni oshirishda moliyaviy savodxonlikni oshirish, hukumat va nodavlat tashkilotlar uchun ustuvor vazifa sanaladi.

Iqtisodiy nochor korxonalarining uzoq muddatli muvaffaqiyati va barqarorligini ta'minlashda moliyaviy yordam ajralmas bo'lsa-da, bu yagona yechim emas garchi moliyaviy savodxonlik, iqtisodiy siyosatni qo'llab-quvvatlash va jamoatchilik ishtirokini o'z ichiga olgan keng qamrovli strategiyalarda muhima ahamiyat kasb etadi.

Ko'plab horijlik iqtisodchi olimlar iqtisodiy nochor korxonalarni moliyalashtirishni ta'siri bo'yicha ekonometrik tadqiqotlar olib borilgan.

Mohamed Ali Merroun (2023) va boshqalarga ko'ra, nochor korxonlar rasmiy kredit olishda axborotning assimetriyasi, yuqori qayta ishlash xarajatlari va garov qiymatining etarli emasligi kabi muammolarfa duch kelgan (Putri, Rahayuningtyas, Yanti, 2023). Ushbu muammolar kam ta'minlangan nochor korxonlarga, shu jumladan kichik va o'rta korxonlarga kredit berishga qaratilgan mikromoliyaviy dasturlarning kuchayishiga olib kelishiga sabab bo'lgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, omilli tahlil, statistik va moliyaviy tahlil, ekspert baxolash, axborotni qayta ishlash, matematik modellashtirish va boshka usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

"Ekonometrik tadqiqotni ishlab chiqishda iqtisodiy nochor korxonalarni moliyalashtirishga ta'sirini baholashda O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining (<https://cbu.uz/>), hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi (<https://stat.uz/>) ning 2019 yildan 2024 yilgacha bo'lgan choraklik ma'lumotlaridan iborat kuzatuvlar soni 21 tani tashkil etuvchi iqtisodiy va raqamli ko'rsatkichlardan foydalanildi.

Ushbu ekonometrik modelni ishlab chiqishda ma'lumotlar ko'p oomilliy vaqtli qatorlar asosida shakllantirilganligi uchun ARDL (Autoregressive distributed lag) modelini qo'lladik.

Ekonometrik modelni ishlab chiqish jarayonida ARDL modelining regressiya tenglamasi, modelning statsionarligini baholash uchun birlik ildiz Unit root testi, o'zgaruvchilarning modelga qisqa va uzoq muddatli bog'liqligini aniqlash uchun kointegratsiya uchun Bound esti va Cusum diagnostiktesti baholandi.

Ekonometrik model bo'yicha, mustaqil o'zgaruvchilarning bog'liq o'zgaruvchiga keyingi yillarda qay darajada ta'sir qilishini aniqlashda ARDL model tenglamasi baholandi.

Tasviriy statistik ahamiyatlilik ko'rinishi ekonometrik model, scatter tasvir qoidalari, normal taqsimot grafigining bog'liqlik matritsasi va vaqt boyicha tahliliy tasvir hamda bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilarning analitik grafiklari asosida ishlab chiqilgan. Shuningdek, ekonometrik tadqiqotda multikollinearlik holatini aniqlash uchun mustaqil va qaram o'zgaruvchilar o'rtasidagi korrelyatsiya matritsasi tahlili o'tkazildi. ARDL modeli o'zgaruvchilar o'rtasidagi qisqa va uzoq muddatli dinamik munosabatlarni bog'lashda moslashuvchan ekonometrik usul hisoblanadi. ARDL model ma'lumotlar seriyalari turli tartiblarda birlashtirilgan holatlarda foydali hisoblanib, uni turli sohalarda empirik tadqiqotlar uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda.

ARDL modeli o'zgaruvchilar o'rtasidagi uzoq muddatli muvozanat munosabatlarini aniqlashda kointegratsiya tahlilidan foydalangan holda samarali statistik usuldir.

ARDL modeli kointegratsiyani tahlil qilishda statsionar bo'lmagan o'zgaruvchilarda ham uzoq muddatli korrelyatsiyalarni tekshirish imkon beradi. Shu bilan birga, ARDL arxitekturasi muhim tarkibiy qismi bo'lgan chegaralarni sinovdan o'tkazish yondashuvi buni amalga oshirishga imkon beradi.

ARDL modelining moslashuvchanligi uning turli ekonometrik tadqiqotlarda birlashtirilgan o'zgaruvchilarni boshqarish qobiliyati bilan namoyon bo'ladi, bu esa uni turli xil tadqiqotlarda ishonchli prognozni taqadim etadi. Bu, ayniqsa, statsionar bo'lmagan vaqt seriyalari ma'lumotlari bilan ishlashda samarali bo'lib hattoki odatiy OLS algoritmlari bilan yuzaga keladigan soxta regressiya muammolaridan qochishga erishadi.

Quyida ARDL modeli formulasi keltirilgan.

$$y_t = \alpha + \alpha_1 y_{t-1} + \alpha_2 y_{t-2} + \dots + \alpha_q y_{t-q} + \lambda_1 z_{t-1} + \lambda_2 z_{t-2} + \dots + \lambda_n z_n + \mu_1 r_{t-1} + \mu_2 r_{t-2} + \dots + \mu_r r_{t-r} + \varepsilon_t \quad (1)$$

Bu yerda, Y_t t vaqtidagi bog'liq o'zgaruvchini ifodalaydi.

$y_{t-1}, y_{t-2}, \dots, y_{t-k}$ - bog'liq o'zgaruvchini kechikkan qiymatlarini ifodalaydi

$z_{t-n}, z_{t-n-1}, \dots, z_{t-n}$ - mustaqil o'zgaruvchini kechikkan qiymatlarini anglatadi.

$r_{t-1}, r_{t-2}, \dots, r_{t-r}$ - bog'liq o'zgaruvchilarga ta'sir e'tuvchi boshqa omillarning kechikkan qiymatlarini bildiradi.

$\alpha_1, \alpha_2, \dots, \alpha_k, \lambda_1, \lambda_2, \lambda_n, \mu_1, \mu_2, \dots, \mu_r$ baholanadigan koeffitsiyentlar qiymatlarini ifodalaydi, ε_t t vaqtidagi xatolikni ifodalaydi

Ekonometrik model bo'yicha barcha o'zgaruvchilar natural logoriflangan.

Quyida ekonometrik model bo'yicha barcha o'zgaruvchilar ifodalangan.

O'zgaruvchilar:

Iqtisodiyot tarmoqlari kesimida faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar soni - ***Lnnon_operat_company*** (bog'liq o'zgaruvchi), qayta moliyalash stavkasi - ***Lnrefinanc_rate*** (mustaqil o'zgaruvchi), ishsizlik darajasi - ***Lnunemploy_rate*** (mustaqil o'zgaruvchi), inflyatsiya darajasi - ***Lninflat_rate*** (mustaqil o'zgaruvchi).

Ekonometrik tadqiqotni ishlab chiqishda bosh (H_0) va alternativ (H_1) gipotezalar o'z aksini topgan.

Kombinatlangan modeldagi gipotezaning tuzilishi:

H_0 : Qayta moliyalashtirish stavkasi, ishsizlik darajasi va inflyatsiya darajasi birgalikda milliy iqtisodiyotning tarmoqlar bo'yicha iqtisodiyot tarmoqlari kesimida faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar soniga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmaydi bog'liqlik alomatlari mavjud emas.

H_1 : Qayta moliyalashtirish stavkasi, ishsizlik darajasi va inflyatsiya darajasi birgalikda milliy iqtisodiyotning tarmoqlar bo'yicha iqtisodiyot tarmoqlari kesimida faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar soniga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatib mustahkam korrelatsiyani nomoyish etadi.

Muqobil gipotezalar alohida omillarga asoslangan holda quyida nomoyon etgan:

Qayta moliyalash stavkasining ta'siri:

H_{01} : Qayta moliyalashtirish stavkasi Iqtisodiyot tarmoqlari kesimida faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar soniga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmaydi.

H_{11} : Qayta moliyalashtirish stavkasi Iqtisodiyot tarmoqlari kesimida faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar soniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Unga ko'ra yuqori qayta moliyalash stavkalari qarz olish xarajatlarini oshirishi va moliyaviy cheklovlar tufayli ko'proq korxonalar yopilishiga olib kelishiga sabab bo'ladi.

Ishsizlik darajasining ta'siri:

H_{02} : Ishsizlik darajasi iqtisodiyot tarmoqlari kesimida faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar soniga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi.

H_{12} : Iqtisodiyot tarmoqlari kesimida faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar soniga ishsizlik darajasi sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Yuqori darajadagi ishsizlik iqtisodiy stressni ko'rsatishga sabab bo'ladi, bu esa ko'plab korxonalarni faoliyatini to'xtatishga olib keladi.

Inflyatsiya darajasining ta'siri:

H_{03} : Inflyatsiya darajasi iqtisodiyot tarmoqlari kesimida faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar soniga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmaydi.

H₁₃: Inflyatsiya darajasi iqtisodiyot tarmoqlari kesimida faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar soniga sezilarli ta'sir darajada ko'rsatadi. Bu shuni ko'rsatadik, yuqori inflyatsiya su'ratlari korxonalar uchun kirish xarajatlarini oshirishga olib keladi, bu esa korxonalarining faoliyatini to'htatish ehtimoliga sabab bo'ladi.

Ekonometrik tadqiqotning dastlabki bosqichida bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilar bo'yicha deskriptiv statistik ko'rsatkichlar keltirilgan (1-jadvalga qarang).


1-jadval

Bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilar bo'yicha deskriptiv statistik ko'rsatkichlar

| | <i>Lnnon_operat_company</i> | <i>Lnrefinanc_rate</i> | <i>Lnunemploy_rate</i> | <i>Lninflat_rate</i> |
|-------------|-----------------------------|------------------------|------------------------|----------------------|
| Mean | 4.58084 | 4.566485 | 4.571764 | 4.590919 |
| Maximum | 7.664668 | 5.20849 | 6.719558 | 5.524916 |
| Minimum | .2847197 | 3.282372 | 1.755587 | 2.763266 |
| Std. Dev | 1.740279 | .445707 | .9845253 | .9943673 |
| Std. Err. | .37976 | .0972612 | .214841 | .2169887 |
| Skewness | -.7859672 | -.9911296 | -.7707301 | -.8404928 |
| Kurtosis | 3.26582 | 4.522661 | 5.306271 | 1.977889 |
| Observation | 21 | 21 | 21 | 21 |

1-jadvalga ko'ra, model bo'yicha deskriptiv statistik ko'rsatkichlar bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilar bo'yicha pozitiv koeffitsientlarni hosil qilgan holda ishonch o'ralig'ida joylashgan. Shuningdek, o'zgaruvchilarning ko'rsatkichlari o'rtacha qiymat atrofida jamlanganligini ko'rish mumkin.


Tadqiqot bo'yicha, iqtisodiyot tarmoqlari kesimida faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar soni va unga ta'sir etuvchi omillarning davri bo'yicha grafik tasviri quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi (1-rasmga qarang).




1-rasm. Bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilarning o'zaro korrelyatsion matritsasi vaqt bo'yicha tahliliy grafik tasviri

Yuqoridagi chizmaga ko'ra bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilar tahlil qilingan davrda o'sish dinamikasini nomoyon etgan. 1-rasm grafik tasvirga ko'ra istiqbolda tanlangan omillar o'sish prognozini taqdim etgan. Shuningdek, grafik tasvir bo'yicha stoxastik holatni ifodalanishi ekonometrik tadqiqotning keyingi bosqichlarida pozitiv hulosalarni taqdim etadi.

Ekonometrik tadqiqotning keyingi bosqichda bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilarining grafik matritsa va skatter tasviri keltirilgan (2-3-rasmlarga qarang).




2-rasm. Bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilarning grafik matritsa tasviri



3-rasm. Bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilarning skatter grafik tasviri

Yuqoridagi 2 va 3-rasmlarga asoslangan holda, grafik tasvir natijalar va aniqlovchi xususiyatlar o'rtasidagi mustahkam korrelatsiyani hosil qilgan va ushbu ma'lumotlar to'plamida aniq zichlik ta'siri ifodalangan. Vizual o'zgaruvchan ma'lumotlar nuqtalarida zichlikka asoslangan klaster tahlilini qo'llash muhim effektlarni taqdim etgan. Skatter grafik tasviri barcha mustaqil o'zgaruvchilarning bog'liq o'zgaruvchiga nisbatan kuchli ta'sirni taqdim

etgan. Ekonometrik tadqiqot bo'yicha, iqtisodiyot tarmoqlari kesimida faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar soni va unga ta'sir etuvchi omillarning tahliliy bog'liqlik (rconnected) grafigi shakllantirilgan (4-rasmga qarang).



4-rasm. Bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilarning tahliliy bog'liqlik (rconnected) grafik tasviri

4-rasmga ko'ra iqtisodiyot tarmoqlari kesimida faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar soni va unga ta'sir etuvchi omillarning hamda ishsizlik darajasi diyarli bir hil dinamik tasvirni taqdim etgan. qayta moliyalash stavkas hamda inflyatsiya grafik taqsimotga ko'ra o'sish dinamikisini hosil qilgan.

2-jadval

| Bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilarning o'zaro korrelyatsion matritsasi | | | | |
|--|--------------------|---------------------|--------------------|--------------|
| Variables | (1) | (2) | (3) | (4) |
| (1) <i>Lnnon_operat_company</i> | 1.000 | | | |
| (2) <i>Lnrefinanc_rate</i> | 0.7146 (0.0007) | 1.000 | | *** |
| (3) <i>Lnunemploy_rate</i> | 0.7162 (0.000) | -0.5291 (0.0692) | 1.000 | *** |
| (4) <i>Lninflat_rate</i> | 0.7132 (0.0000) | 0.5026 (0.0051) | 0.6851 (0.0006) | 1.000 *** |

*** $p < .01$, ** $p < .05$, * $p < .1$

Bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlik:

Tadqiqot bo'yicha iqtisodiyot tarmoqlari kesimida faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar soni va unga ta'sir etuvchi omillarning o'zaro korrelyatsion bog'liqlik matritsasini ishlab chiqildi. (2-jadvalga qarang).

2-jadval natijalariga shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyot tarmoqlari kesimida faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar soni va unga ta'sir etuvchi omillarning o'rtasida kuchli, mustahkam va teskari korrelyatsion munosabatni taqdim etgan. Shuningdek, jadval bo'yicha p-qiymatining 0,05 dan kichikligini inobatga olgan holda, korrelyatsion koeffitsient uchun uning ahamiyatlilik darajasini ifodalagan.

Xulosa va takliflar.

ARDL(2,2,2,2) modeliga ko'ra:

Qayta moliyalash stavkasining ta'sirini baholash: Qayta moliyalash stavkasining 1 foizga oshishi ishlayotgan korxonalar sonining 0,16 foizga oshishiga olib keladi. Unga ko'ra qayta moliyalash stavkasining oshishi qarz olish xarajatlarini oshiradi, bu esa korxonalarining arzon kreditlardan foydalanishini qiyinlashtirishi mumkin. Bu bosim investitsiya, kengayish yoki hatto operatsion salohiyatni kamaytirishi mumkin, ammo nisbatan kichik ta'sir hajmi (0,16%) qayta moliyalash stavkalaridagi o'zgarishlar uzoq muddatda biznesni yopishga nisbatan mo'tadil ta'sir ko'rsatishini anglatadi.

Ishsizlik darajasining ta'siri baholash. Ishsizlik darajasining 1 foizga o'sishi ishlayotgan korxonalar sonining 0,93 foizga o'sishiga olib keladi. Natijaga ko'ra, ishsizlik darajasi tadbirkorlik faoliyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Yuqori ishsizlik ko'pincha zaif iste'mol talabi va iqtisodiy noaniqlikni aks ettiradi, bu ikkalasi ham savdoning pasayishiga olib keladi va ko'proq korxonalar faoliyatini to'xtatishga majbur qiladi hamda 0,93% qiymati ishsizlik iqtisodiyotdagi tadbirkorlik faolsizligining asosiy omili ekanligini ko'rsatadi.

Inflyatsiya darajasining ta'sirini baholash. Inflyatsiya darajasining 1% ga oshishi ishlayotgan korxonalar sonining 0,66% ga oshishiga olib keladi. Unga ko'ra yuqori inflyatsiya ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan mahsulotlar, xizmatlar va materiallar tannarxini oshiradi, bu esa foyda marjasini pasaytirishi va biznesning hayotiylikini pasaytirishga olib keladi. O'rtacha kuchli ta'sir (0,66%) inflyatsiya korxonalarining operatsion holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ko'rsatadi, ayniqsa xarajatlarning oshishi rentabellik va pul oqimini qisqartiradi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

Alen, Sawayaa., Shepherd, Bhero. (2022). *Financial Support, Indispensable for Smes Growth in Mozambique*. *Archives of Business Research*, 10(10):145-164. doi: 10.14738/abr.1010.132664.

Atreyee, Sinha, Chakraborty. (2018). *Financial Inclusion of Marginalised Population in India-a review*. *TIJ's Research Journal of Economics & Business Studies - RJEBS*, 7(7).

Julia, Rouse., Dilani, Jayawarna. (2006). *The financing of disadvantaged entrepreneurs: are enterprise programmes overcoming the finance gap?*. *International Journal of Entrepreneurial Behaviour & Research*, 12(6):388-400. doi: 10.1108/13552550610710162.

Mohamed, Ali, Merroun., Mhamed, Hamiche. (2023). *Access to microcredit and its impact on the performance of small and medium-sized enterprises: a literature review / acces au microcredit et a ses impact sur la performance des petites et entreprises de taille moyenne : une revue de la littérature*. *European Journal of Economic and Financial Research*, 7(3) doi: 10.46827/ejefr.v7i3.1535.

Putri, Rahayuningtyas., Yanti, Yanti. (2023). *Factors affecting financial distress in manufacturing companies listed on idx*. *International Journal of Application on Economics and Business*, 1(2):861-870. doi: 10.24912/ijaeb.v1i2.861-870.

Rabindra, Kumar, Swain. (2014). *Micro Finance, Micro Enterprises and Women Entrepreneurs*.

Timothy, Bates., Timothy, Bates. (2005). *Financing Disadvantaged Firms*. *Social Science Research Network*.